

TIL – MILLAT KO’ZGUSI

Ikromov Azizbek Akmal o’g’li

*Termiz Davlat Universiteti Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish
hamda boshqarish yo’nalishi 2- bosqich talabasi*

Annotatsiya. Maqolada dunyoda qadimiy va boy tillaridan biri bolgan o’zbek tilining tarixi va bugungi kundagi o’rni va roli tahlil qilinadi. Bosh Qomusimizning 4-moddasida “O’zbekiston Respublikasining davlat tili o’zbek tilidir”, deb qo‘yilganiga 33 yil to’lganligi haqida so’z yuritiladi. Til siyosatida olib borilayotgan ishlar haqda o’rganamiz.

Kalit so’zlar: til, o’zbek tili, yozuv, imloviy xatolar, davlat tilida ish yuritish, tilga davlat tili maqomi berilishi, Davlat tili to’g’risidagi qonun, Oltoy tillar oilasi, Qadimgi Turkiy tillar oilasi,

Bosh Qomusimizning 4-moddasida “O’zbekiston Respublikasining davlat tili o’zbek tilidir”, deb qo‘yilganiga 33 yil to’ldi. Bu yillar o’zbek tilining jamiyatdagi mavqeini tiklash uchun oz davr emas. Hozirgi kunda bu xususda turli fikr va munozaralar qilinmoqda. Lekin bu munozara va bahslar amalda ham o’z ifodasini topyabdimi? Ko‘chalardagi, turli muassasalardagi yozuvlarning “Davlat tili to’g’risida”gi qonun talablariga mosligini ta’minlash borasidagi ishlar hamon to’g’irlanib kelmoqda. Bularning barchasi o’zbek tiliga hurmat, ehtiromning faqat qog‘ozlarda ekanligini isbotlaydi. To’g’ri, bu borada talay ishlar ham qilinayapti. Ajdodlarimiz merosi o’rganilib, tadqiq qilinayapti. Lekin barcha ishlarning boshi Ona tiliga hurmat va ehtiromdan boshlanmaydimi? Negaki oramizda hanuzgacha o’z Ona tilini bilmaydigan, fikrlarini o’z tilida ravon bayon qila olmaydigan kimsalar bor. Afsuski, bunday kimsalar millat milliyligiga bepisand qarovchilardir.

O’zbekning buyuk ma’rifatparvari A. Avloniy: “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurg‘on oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur” deganlarida nechog‘li haq edi. U o’sha paytda ham tilimiz haqida qayg‘urib, “milliy tilimizni saqlamoq bir tarafda tursin, uni unutib, yo‘qotmoqdamiz” deya jon kuydirga edi.

O’zbek tili (O’zbekcha) — Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Ushbu til O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat tili hisoblanadi.

O’zbek tili ham barcha turkiy tillar kabi agglyutinativ tildir.

Davlat tili haqidagi Qonun 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. 1995-yil 21-dekabrda takomillashtirildi.

Miloddan oldingi davrlardan to X asrlargacha bo‘lgan davr. Bu davrdagi til fanda **qadimgi turkiy til** deb yuritiladi. Qadimgi xalq og‘zaki ijodi namunalari, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari (VI—VII asrlar) shu tilda yaratilgan

Qadimiy til sifatida e’tirof etilayotgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy qadriyat, o‘zlikni anglash, mustaqil davlatchilik timsoli, ma’naviy boylik, xalqimiz hayotidagi siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

1989-1990-yillarda tilimizga sof o‘zbek tilidagi ayrim so‘zlarni kiritishga olimlarimiz ko‘p harakat qildi. Masalan, “ichoq”, “tayyora”, “tikuchchoq” singari so‘zlearning asl ma’nosini berilsada, tushunsak ham qabul qilmadik. Bu haligacha davom etmoqda. O’sha vaqtarda qandaydir ko‘zga ko‘rinmas to‘siq bordek tuyulardi.

Davr muammosini ko‘tarmoqchi emasmiz. Fikrimizcha, bugun ham milliy til va uning ravnaqi uchun g‘amxo‘rlik qilish bir guruh mutaxassislargagina kerakday, ilmiy-amaliy soha uchun ishlatilayotganday.

Shu o‘rinda Ishoqxon to‘ra Ibratning “**Bizning yoshlar, albatta, boshqa tillarni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir**”, deb bir asr narida aytgan so‘zlarini keltirishni joiz deb bildik. Albatta, mamlakatimiz ko‘pmillatli, har bir millat o‘z ona tiliga ehtirom ko‘rsatishi kerak, shu o‘rinda o‘zbek millati ham.

2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida tilimizni rivojlantirishning muhim belgilari belgilangan. Jumladan, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishishning birdan bir yo‘lini tanlab oldik, ya’ni davlat tilida ish yuritish. Bunga nafaqat ish yuritish, balki ish yuritish orqali odamlar ongida o‘zbek tili imkoniyatlarini to‘liq singdirish – yozma nutq, og‘zaki nutq va tashqi ko‘rgazma til siyosatining asosiy texnologiyalaridandir.

Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish bugungi kundagi eng muhim yo‘nalishlardan biri. Lekin, aksariyat hollarda tilning sofligini saqlash, ilmiy muassasalar va tilshunoslarning ishi deya, kalavaning uchini o‘zimizdan qochiramiz.

Globallashuv jarayonida tilimizning rivojlanishi ham tezlashib, o‘zga tillardan kirib kelayotgan so‘z va iboralar ham rivojlanishga “o‘zlashtirma” so‘zlar sifatida hissa qo‘shmoqda. Ularning tilimizdagi muqobili yoki o‘zbekcha talqini borligini “izlamay” muloqot jarayoniga kiritib yuboramiz. Bu asosan yozma muloqotda ko‘proq sezilib, ommaviy tus olmoqda.

Har bir soha til siyosatiga bo‘lgan e’tiborni o‘zi ko‘rsatib beradi. Masalan, “plagiat”, “antiplagiat”, “skrinshot”, “stendap”, “prezentatsiya” va hokozalar. Eng achinarlisi uni tushunib, tushunmay hayotimizda ishlatayotganligimiz – biron bir

oshxonaga ovqatlanishga kirsangiz, “soboyga nima bor”, “soboy qiling”, “soboyga olib ketasizmi?”, “Fleshmob qiling” kabi juda ko‘p so‘zlarni uchratamiz.

Hozirgi kunda yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda tilni qisqartirib yozib imlo xatolarga yo‘l qoymoqda. Davlat tilini boyitib borishda Konsepsiya asosida faoliyatni yo‘lga qo‘ysakkina, ya’ni o‘zbek tilini boyitib boramiz. Buning uchun har bir soha vakillari faoliyatidagi so‘z va atamalarni muqobilini yaratib, lug‘aviy izohini tilshunos-mutaxassislar bilan kelishib, uni amaliyotga kiritishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Arxiv sohasida ishlatilayotgan 100 ga yaqin so‘zlarning bugungi kunda muqobili tayyorlanib, ularning izohi bilan berilgan lug‘ati ishlab chiqildi. Bugungi kunda tayyorlanayotgan har bir soha bo‘yicha izohli lug‘atlarimiz esa, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini tezlashtirib, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini yanada oshiradi.

Til siyosati haqida ilgari “ehtiyyot bo‘ling”, “til siyosati nozik”, “biz ko‘pmillatli xalqmiz” deguvchilar topilardi. Qat’iy talablarni qo‘yish siyosatning boshqa tillarga nisbatan putur yetkazishiga olib kelmaydi. Davlat tilini rivojlantirishga doir yagona davlat siyosatini yuritishda rahbarlarining maslahatchilariga katta mas‘uliyat yuklatilgan. Davlat tilining amal qilishi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan, shuningdek, uni rivojlantirish sohasida farmon, qarorlarning belgilanganligi, hukumatda maxsus tuzilma tashkil qilinganligi va bu o‘zbek tilining nufuzini davlat siyosati darajasida olib borilishini ta’minlaydigan yangi omildir.

2021-yil 1-apreldan boshlab esa o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha bilimni baholashning milliy test tizimi asosida rahbar kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yuritish darjasini aniqlanishi yo‘lga qo‘yilganligi esa til siyosatini yuritishning funksional yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Demak til siyosati endi asta mafkuraga aylanib, ongimizga singib boraveradi

“O‘ynab so‘zlasang ham o‘ylab so‘zla”, degan naql bor. O‘ylamay aytilgan birgina so‘z, behayo bir ibora oilani barbod qilishi, ota-bola, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug‘ni bir-biriga teskari qilishi mumkin. Bunga misollar ko‘p. Millat sha’niga botadigan, g‘ururiga tegadigan asossiz ayblov yoki tahqir bois xalqlar, mamlakatlar o‘rtasiga rahna solingani, janggu jadallarga sababchi bo‘lgani ham sir emas. Hayotda goho bir-birini mutlaqo tanimagan, o‘zaro muloqotda bo‘lmagan ikki kishi go‘zal bir lutf, samimiy tabassum, shirin muomala bois qadrdon bo‘lib ketishadi. So‘zning qudrati, tilning jozibasi bois shunday bo‘ladi. Xalq ertaklarida tasvirlangan ochko‘z devlarning “Assalomu alaykum, devbuva” qabilidagi yoqimli lutf, yaxshi muomala bois yomon niyatidan qaytishi (“Saloming bo‘lmaganida yetti yamlab bir yutardim” deyishi) ham so‘zning qudratini ko‘rsatadi. Sotsiolog olimlar milliya’naviy ildizlar zaiflashgan, ma’naviy qadriyatlarga rioya qilish sustlashgan, ona tilining qo‘llanilishi kamaygan hududlarda jinoiy xatti-harakatlar nisbatan ko‘proq sodir bo‘lishini allaqachon isbotlab berishgan.

So‘zlash odobi, nutq ravonligi oiladan, mактабдан, mahallадан boshlanadi. Inson nechog‘li uzoq umr ko‘rmasin, bu odobga o‘рганишning adog‘iga yeta olmaydi. Kichiklik chog‘idan to‘g‘ri talaffuzga, so‘z va iboralarni, ismlar, joylar, turfa xil nomlarni to‘g‘ri ifoda qilishga o‘ргатиlgan, kitob bilan do‘s tutingan, xalq ertaklarini ko‘p va xo‘b o‘qigan, sarguzasht dostonlarni miriqib tinglagen bolalarning nutqi boshqa tengdoshlariga nisbatan shirali bo‘ladi. Bu farqni nainki nutqda, bolaning shakllanayotgan nozik xarakterida, tengdoshlari bilan muomalasida, atrofida kechayotgan voqeа-hodisalarga munosabatida va hatto orzu-xayollarida ham ko‘rish mumkin.

Yoshligida ko‘p ertak tinglagen, kattalar ovoz chiqarib kitob o‘qiganida diqqat bilan eshitgan bolalar voyaga yetgach, faqat o‘zlarining emas, boshqalarning ham fikrini e’tiborga oladigan, hech bo‘lmasa, eshitadigan, aql-idrok bilan ish tutadigan, ota-onasidan, katta yoshlilardan maslahat so‘raydigan bo‘ladi.

Nutq o‘z-o‘zidan ravon, ohangdor bo‘lib qolmaydi. Cholg‘uchi biror kuyni o‘рганмоqchi bo‘lsa, uni yuz bor, ming bor ijro qilibgina muddaosiga erishadi. Musavvir bir asar yaratguncha qancha zahmat chekadi. Hech kim birdaniga Suqrot yoki Alibek Rustamov, Azizzon Qayumov, Suyima G‘anieva, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov darajasiga ko‘tarilmaydi. Nutq mahoratini egallash uchun yillar davomida tinimsiz mashq qilish kerak. Qadimgi yunon notig‘i Demosfen o‘zining past, hazin ovozini yaxshilashga jazm qilib, yerto‘лага tushar ekan-da, shiftga o‘tkir tig‘li xanjarni osib qo‘yib (boshini dimog‘dorona baland ko‘tarmaslik uchun) uzluksiz mashq qilar ekan.

Nutq mahorati to‘g‘risida bunday mulohaza yuritayotganimizning boisi bor, albatta. Bugun hayotimizni teleko‘rsatuvlar, radioeshittirishlar, turli yig‘inlar, o‘rinli-o‘rinsiz bahs-munozaralarsiz tasavvur qilish qiyin. Har kuni turfa darajadagi notiqlar suhbatlarini tinglashga to‘g‘ri keladi. Taassufki, ularning hammasida ham nutq mahorati, talaffuz qoidalariga rioya qilinmaydi.

Ona tilimizga xos nozik, betakror iboralar, xalq donishmandligi ifodasi bo‘lmish maqol va matallar, ta’sirchan tashbehlар o‘rinsiz yoki mutlaqo xato ishlatilganida asabingiz buziladi. Bunga qo‘srimcha, ayrim notiqlar ma’ruzalariga o‘ziga xos “alohidalik” baxsh etish uchun bir necha tillarni bir-biriga qorishtirib gapirishni, o‘zidan boshqa kishi tushunmaydigan xorijiy iboralardan keragidan ortiq foydalanishni odat tusiga aylantirmoqdalar. Bunday chuchmallikka teleekranda, turli yig‘inlar minbarlari, davra suhbatlarida, hatto madaniyat va ma’rifat mavzusidagi ma’ruzalarda ham ko‘rish mumkin.

Abu Homid G‘azzoliyning “Til ofatlari” kitobida bunday jumla bor: “Insonga eng itoatsiz a’zo – til. Chunki bu suyaksiz a’zoning osongina harakatga kelishi va hech bir mashaqqatsiz yugurikligi kutilmagan oqibatlarga sabab bo‘ladi”.

“Qobusnama”ning yettinchi bobida o‘qiyimiz: “Ey farzand, toki qila olsang (ya’ni qo‘lingdan kelsa), so‘z eshitmakdin qochmag‘ilkim, kishi so‘z eshitmak bila suxango‘ylik hosil qilur. Yolg‘on va behuda so‘z aytmak devonalikning bir qismidur. Har kishiga so‘z aytar bo‘lsang, qarag‘il, u sening so‘zingga xaridormu yoki xaridor emasmu? Agarda uni so‘zingga xaridor topsang, unga so‘zingni sotg‘il. Yo‘q ersa, ul so‘zni qo‘yib, shundoq so‘z degilkim, unga xush kelsin va sening so‘zingga xaridor bo‘lsin”.

Zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funksional imkoniyatlaridan foydalanish borasida benihoya imkoniyatlar eshigini ochdi. Kompyuter tarjimasi, avtomatik tahrir va tahlil, yozma matnni ovozlashtiruvchi nutq sintezatorlari, og‘zaki nutqni yozma matnga aylantiruvchi nutqni tanish dasturlari, elektron lug‘atlar, lingvistik mobil ilovalar, tezauruslar va til ontologiyasi fikrimizning daliidir. Ayniqsa, zamonaviy elektron lug‘atlar tuzish va undan foydalanish madaniyatini shakllantirish til imkoniyatini egallashda samarador ekanligi o‘z isbotini topgan. Xususan, tilning imkoniyatini namoyon qilish va egallah borasida dunyo miqyosida tez sur’atlarda yaratilayotgan til korpuslarining roli beqiyos.

Xulosa qilib aytganda tilning ichki dunyosi keng, biz undan to’gri va oqilona foydalanishimiz kerak. Tilga ta’rif berilganda, unga nisbatan “millat ruhi”, “millat ko‘zgusi” kabi tashbehlar keltiriladi. Haqiqatan ham, tilda millat ruhi yashaydi, millat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar tilda xuddi ko‘zgudek aks etib turadi. Ulug‘ bobokalonimiz Abdulla Avloniy aytganidek: “Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”. Shuning uchun ham milliy til har qanday davlatning ramzlaridan biri hisoblanib, tilning takomili, rivoji davlat himoyasida bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Til.gov. uz
- 2.Ziyonet.uz
- 3.Kaykovusning “Qobusnama” kitobi
4. Abu Homid G‘azzoliyning “Til ofatlari” kitobi